



*Ma'suma MO'MINOVA.,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: masumamominova0409@gmail.com*

PhD G.Bohodiroya taqrizi asosida

CONSIDERATIONS ON THE RESEARCH OF WATER

Annotation

This article provides information about some synchronous and diachronic research methods and directions that are priority in the study of water and water-component compounds in world linguistics. Views and attitudes towards the influence of water on human character and language grammar are expressed. Also, comments are made on the citation of water-component units in religious and mythological sources and their cult nature in national culture. The metaphorical properties and associative relationship of water-component compounds in traditional linguistics are explained based on examples. Some experiences and views on the study of water-component toponyms are presented.

Keywords: water lexeme, water component unit, "water of life", "Avesta", mythological prototype, figurative scheme, associative relationship, hydronyms, toponyms.

СООБРАЖЕНИЯ ПО ИССЛЕДОВАНИЮ ВОДНЫХ КОМПОНЕНТОВ

Аннотация

В данной статье представлена информация о некоторых синхронных и диахронических методах и направлениях исследований, имеющих приоритетное значение в изучении воды и водокомпонентных соединений в мировой лингвистике. Высказаны взгляды и отношение к влиянию воды на человеческий характер и грамматику языка. Также прокомментировано упоминание водокомпонентных единиц в религиозных и мифологических источниках и их культовый характер в национальной культуре. На примерах объяснены метафорические свойства и ассоциативные связи водокомпонентных соединений в традиционной лингвистике. Представлены некоторые примеры и взгляды на изучение водокомпонентных топонимов.

Ключевые слова: лексема воды, компонент воды, «вода жизни», «Авеста», мифологический прототип, образная схема, ассоциативная связь, гидронимы, топонимы.

SUV KOMPONENTLI BIRLIKLAR TADQIQIGA OID MULOHAZALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada dunyo tilshunosligida suv va suv komponentli birikmalarni o'rganishda ustuvor bo'lgan ayrim sinxron va diaxron tadqiqot usullari va yo'nalishlari haqida ma'lumot beriladi. Suvning inson xarakter xususiyati va til grammatikasiga ta'siri xususidagi qarashlar va unga munosabat bildiriladi. Shuningdek, suv komponentli birliklarning diniy-mifologik manbalarda keltirilishi va ularning milliy madaniyatdagi kult xususiyati haqida mulohazalar beriladi. An'anaviy tilshunoslikda suv komponentli birikmalarning metaforik xususiyatlari, assotsiativ munosabati misollar asosida tushuntiriladi. Suv komponentli toponimlar tadqiqot borasida ayrim tajriba va qarashlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: suv leksemasi, suv komponentli birlik, "hayot suvi", "Avesto", mifologik prototip, obrazli sxema, assotsiativ munosabat, gidronimlar, toponimlar.

Kirish. Suv insoniyat tamaddunida muhim rol o'ynagan hodisalardan biri hisoblanadi. Ibtidoiy jamiyat o'z madaniyatiga va davlatchiligiga aynan suv havzalari atrofida asos soladiki, bu unga agromadaniyat, hunarmandchilik, chorvachilik, shaharsozlik singari muhim kasb-faoliyatlarni tashkil qilish va rivojlantirish imkonini beradi. Hozir ham aksar faoliyat turlari suv bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq. Suvning inson hayotida tutgan o'rni uning tilida ham aks etadi, suv so'zi bosh va ko'chma ma'noda qo'llanib, ramz, timsol, majoziy obraz vazifasini bajaradi, milliy-madaniy belgi namoyon qiladi. Shu sababli ham antik davr ilm-fanidan bugunga qadar suv va inson aloqadorligini asoslashga qaratilgan nazariyotlar yaratib kelinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jumladan, inson xarakterini to'rt temperamentga bo'lish asosida, ularning har birida ma'lum tabiat elementi: suv, havo, olov, safru ustunlik qilishi va bu insonning xatti-harakatlari, tabiatida ham aks etishiga doir qarashlarni bunga misol sifatida keltirishimiz mumkin. Shuningdek, mazkur taalluqlilik nutqda ham

namoyon bo'ladi deb ishonilgan. Bunday qarashlar xalq tabobatida ham keng yoyilgan.

Suv bilan aloqador bo'lgan yana bir qarash borki, yuqoridagi nazariya va qarashlarga monand. Olimlar inson yashab turgan tashqi muhit uning xarakteriga, shu bilan birga tiliga ham chuqur ta'sir ko'rsatishini aytishadi. Bu jarayon ibtidoiy davrlarda yaqqol namoyon bo'lgan. R.Abdullayeva olim V.Grinkodan iqtibos keltirar ekan, milliy xarakterning shakllanishida tabiiy muhit, shu jumladan, suv muhiti ma'lum rol o'ynashini ta'kidlaydi. V.Grinko o'z fikrini rus va ingliz tillari misolida dalillashga harakat qiladi. Tadqiqotchiga ko'ra, tabiiy landshaft xalqning xakteri va til strukturasi faol ta'sir ko'rsatadi. Suv havzalaridan nisbatan uzoq, masalan, cho'l mintaqalarida yoki keng quruqlikda istiqomat qiladigan xalqlarda mehnat faoliyati jamoaviy tarzda amalga oshiriladi, bunday xalqlar xarakterida ham jamoaviylikni targ'ib qiluvchi g'oyalar rivojlanadi va qadrlanadi, bunday xalqlarda yerga ishlov berish jarayonida o'z grammatikasi ustida faol ishlash imkoniyati ham bo'ladi. Shuning uchun, odatda, bunday

xalqlarda tildagi har bir hodisa uchun alohida so'z va ko'rsatkichlar belgilanadi. Til murakkablik kasb qiladi. Biroq suv va suv havzalari atrofida istiqomat qiladigan xalqlarda vaziyat murakkab. Chunki birinchi navbatda bunday joylarda suv insonga doimiy talafot yetkazib turadi, jumladan, suv toshqinlari, sunami va h.k. Bu ularning tabiatida kurashuvchanlik, chidamlilik singari xarakter xususiyatlari shakllanishiga olib keladi. Bunday xalqlarda ham jamoaviy mehnat an'analari bo'ladi, biroq suv talafotida har bir kishi yolg'iz qolishi mumkinligini inobatga olib, individuallik ham muhim hisoblanadi. Bunday til egalari doimiy suvdan aziyat chekish, unga qarshi kurashish va uning oqibatlarini bartaraf qilish bilan bog'liq tig'iz hayot tarzi bo'lganligi uchun ular o'z grammatikasi ustida chuqur ishlay olmaydilar, aksar tovush tarkibi kam bo'lgan sodda so'zlardan foydalanadilar, so'z omonimik xarakterda bo'lib, bir necha so'z turkumlarini ifodalab kelishi mumkin. Tadqiqotchi aksar inglizcha fe'llarning uch yoki to'rt harfdan iborat ekanligini, dream, work singari so'zlarning bir necha turkumda kela olishini misol sifatida keltiradi. Rus tilini esa nisbatan quruq mintaqada tarqalgan til sifatida fe'llari va ularning tuslanishi murakkab ekanligini aytadi [1]. Demak, xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, suv so'zi tadqiqotdagi birlamchi masalalar suv va uning insonga hamda uning tiliga ta'sirini asoslashga qaratilgan. Bizningcha, bu turkum nazariyalar amaliy jihatdan real hayotga ko'p jihatdan to'g'ri kelsa-da, chuqur ilmiy tahlil va dalillarni taqozo qiladi.

Keyingi qatorga bevosita til ilmlarining o'zida suv so'ziniong o'rganilishi bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarni keltirishimiz mumkin. Masalan, suv komponentli birliklar antroposentrik paradigma yo'nalishlarida bir necha jihatdan tahlilga tortilmoqda. Jumladan, o'zbek tilida ham suv komponentli birliklarning semantik, etimologik, lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq qilingan ko'plab ilmiy ishlar e'lon qilinmoqda. Ta'kidlash joizki, suv so'zi universal, umumbashariy xarakterga ega ekanligi sababli, ya'ni barcha xalqlar turmush tarzi va madaniyatiga birdek aloqadorligi tufayli, barcha universal til birliklariga xos xususiyatlardan holi emas. Masalan, suvning inson hayotining asosiy predmeti ekanligi, dunyoning turli dinlari, madaniyatlari va tillarida "hayot suvi" tushunchasi shakllanishiga olib kelgan. Badiiy adabiyotda u hayot ramziga aylangan. Diniy manbalarda poklanish, folklor namunalari o'liklariga jon bag'ishlovchi, adabiy hayot ramzi, qahramonlar tomonidan doimiy izlanadigan manba sifatida keltiriladi. Sh.Majidovaga ko'ra, "Avesto"da ko'plab tabiat hodisalari singari suvga ham sig'inilgan [2]. Unda suv "farovonlik, rizq-ro'z, to'kin-sochinlik manbai, hayot manbai, ozuqalarning yaxshisi, xushroq'i, parvarish qiluvchi, daromadbaxsh, madad beruvchi va qo'llaguvchi, ezgulik baxsh etuvchi, shodlikning garovi, farzand ato etguvchi, yaxshilik, ezgulik timsoli" sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, tadqiqotchi asarda "Suvlar qasidasi" keltirilganligini aytadi. Tadqiqotchi zardushtiylik ibodat marosimlari haqida so'z yuritib, giyohdan olingan havm suvi – zardushtiylik taomiliga ko'ra, "o'limni yenguvchi yoki o'limni qaytaruvchi suv" ibodat jarayonining asosiy elementi bo'lganligini aytadi. Mazkur o'rin ham "hayot suvi" tushunchasining qadimiy, diniy-mifologik xarakterda bo'lganligini ta'kidlaydi.

M.Hayitova ayni hodisa haqida axborot berar ekan, Felito Melisiyandan: "suv eng qadimgi mifologik prototip, butun elementlar dunyosining bosh elementi" ekanligi haqidagi iqtibosni keltiradi [3]. Har bir xalq hayotida u bilan aloqador ilohlar, marosimlar va tasavvur mavjud bo'lgan. Keltirilgan faktlar asosida xulosa qilish mumkinki, "suv" yirik va murakkab milliy-madaniy, diniy-mifologik, tarixiy konsept 1-jadval

sifatida tadqiq qilinishi lozim. "Hayot suvi" metaforik birikmasi ham bu jarayonda boy madaniy tarixi bilan alohida tadqiqot obyektiga aylanishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayoni bir necha ilmiy metodlar majmuiga asoslanadi. Jumladan, tavsifiy (deskriptiv), leksik-semantik, areal (geografik) tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. An'anaviy tilshunoslik ham mazkur so'zni bir necha jihatdan talqin qiladi. Tabiiyki, suv komponenti birliklar aksar paremiologik fond tarkibida faol bo'ladi. Birinchi navbatda, mazkur birliklarda qo'llangan suv so'zining semantik xususiyatlari aniqlanadi. O'zbek tili misolida oladigan bo'lsak, o'zbek xalq maqollari va iboralarida suv so'zining denotat va konnotativ ma'nolari qo'llanishi mumkin. Maqollar tarkibida parallel qo'yish, qiyoslash usulidan boriladi, suv ma'lum predmet, hodisalar bilan qiyoslanadi yoki, aksincha, ma'lum bir hodisalarga o'xshatiladi.

Masalan:

Yer – xazina, suv – gavhar,

Yerni buzadigan ham suv, tuzadigan ham suv,

Suv – zar, suvchi – zargar

Maqollarida suv so'zining denotat ma'nosi aks etgan.

Matnda to'g'ridan to'g'ri ayni predmet tushuniladi.

Ko'lmak suvga – sassiq alaf,

Pismiq, telba farq qilar, tinch oqqan suv g'arq qilar [4]

Maqollari orqali tabiiy jarayondan insonga xos xususiyatlarni obrazli sxemada aks ettirilgan.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, suv metaforik, ramz sifatida har doim "hayot suvi" singari ijobiy bo'yoqdorlik kasb qilmaydi. Suv ayni vaqtda tabiiy ravishda, shu asosda metaforik tarzda ham "balo", "ofat" mazmunini ham aks ettiradi. D.Xudoyberganova "cho'kmoq" metaforasining shakllanishiga oid qarashlarini keltiradi. Tabiiyki, inson birinchi navbatda suvga cho'kishi mumkin. Olima buni quyidagicha izohlaydi: "cho'kmoq metaforasining shakllanishiga til sohiblarining suv tubiga botish haqidagi tajribalari va qalbni dengiz, daryo kabi chuqur makon sifatida tasavvur qilishlari kognitiv asos bo'lgan. Inson suvga cho'kkanida quruqlik uni o'z domiga tortgani kabi kuchli ruhiy zarba olgan odamning dardi tobora uni iztiroblar "dengiziga" g'arq qiladi" [5]. G'arq qilmoq so'zi bevosita suv so'zi bilan assosiativ munosabatda bo'lib, suvning "ajalovar", "halokatli" xususiyatini ifodalaydi. Ko'rinadiki, suv so'zining semantik tahlili metaforik xususiyatni tushuntirish, assosiativ munosabatni aniqlash va sharhlash asosida amalga oshirilishi lozim.

Folklor namunalari va obrazlari bilan bir qatorda suv komponentli birliklar toponimlar tarkibida ham faol qo'llanadi. Buni insoniyat tamadduni va shaharozlik suv bilan bevosita aloqadorligi bilan bog'lash mumkin. Dunyoning aksar mamlakatlarida suv so'zi bevosita toponim tarkibida kelishi yoki unga ishora qilishi kuzatiladi. Shu jumladan, O'zbekistonda ham. S.Qorayev gidronim lug'atini mavzuga ilova qilar ekan, unda suv va ob komponentli bir necha birlikni keltiradi [6]. Ularni izohlaydi, etimologik xususiyatlariga urg'u beradi. Ob va suv so'zlari toponimlar tarkibida bevosita uchrashi mumkin: Chetsuv, Bo'zsuv, Qorasuv, Suyob va h.k. Mazkur birliklar antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinishi zarur, chunki ulardan xalqning nomlash bilan aloqador tajribasi va madaniyat izi mavjud bo'ladi. Bizningcha, o'zbek tilida suv komponentli toponimik birliklarni antroposentrik asosda o'rganish ehtiyoji yuqorida keltirilgan asos bilan bog'liq. Umuman olganda, suv yirik va murakkab konsept sifatida turli lingvistik yo'nalishlarda tadqiq qilish mumkin bo'lgan mavzu. Quyida mazkur yo'nalishlarni jadval asosida aks ettirishga harakat qildik,

Dunyo tilshunosligida suv komponentli birliklar tadqiqi		
Diaxron aspektda	Suv komponentli birlik	Semantik
		Etimologik
Sinxron aspektda	Suv komponentli birlik	Suv va til, nutq aloqadorligi
		Lingvokulturologik
		Kognitiv
		Teolingvistik

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, suv komponentli birliklar tadqiqi an'anaviy ravishda paremiologik fond tarkibida semantik va etimologik jihatdan tahlil qilingan[7]. O'zbek tilshunosligida bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Suv komponentli toponimik birliklar aniqlangan. Ammo zamonaviy tilshunoslik tamoyillariga ko'ra mazkur birliklarning semantik xususiyatlari

bilangina chegaralanish mumkin emas, mazkur birliklarning milliy-madaniy belgi tashuvchi sifatidagi xususiyatlari, o'zbek lisoniy manzarasida tutgan o'zni, toponimik birliklar hosil qilishda va nomlash jarayonidagi roli, teolingvistik birlik sifatidagi mohiyatini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarga ehtiyoj bor.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva R. O'zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi. Filol. fan. b. fals. dok... diss. – Namangan, 2021. – 128 b.
2. Majidova Sh. "Avesto"da suv kulti bilan bog'liq miflar va mifologik obrazlar // Pedagog, 2023. – 63-66 b.
3. Hayitova M. Jahon tilshunosligida "suv" leksemasining o'rganilishi // Tadqiqot va innovatsiyalar jurnali, 3-son, 2024. – 18-24 b.
4. bilimlar.uz // suv haqida maqollar
5. Xudoyberganova D. O'zbek tili metaforalarining antroposentrik lug'ati. – Toshkent: Ilm-fan va innovatsiya nashriyoti, 2025. – 178 b.
6. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 318 b.
7. Mo'minova M. Suv komponentli lisoniy birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dok... diss. – Qarshi, 2024. – 131 b.